

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**PANJIYEV AZIZ RIZAKULOVICH**

**PAXTA TOLASI PISHGANLIK DARAJASI ASOSIDA IP NOTEKISLIGINI**  
**BAHOLASH VA BASHORATLASH**

**05.06.01- To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Panjiyev Aziz Rizakulovich**

Пахта tolasi pishganlik darajasi asosida ip notekisligini baholash va bashoratlash..... 3

**Панжиев Азиз Ризакулович**

Оценка и прогнозирование неровноти пряжи в зависимости от степени зрелости хлопкового волокна ..... 23

**Panzhiev Aziz Rizakulovich**

Evaluation and prediction of yarn unevenness based on the degree of maturity of cotton fiber ..... 43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ ..... 47

List of published works.....

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**PANJIYEV AZIZ RIZAKULOVICH**

**PAXTA TOLASI PISHGANLIK DARAJASI ASOSIDA IP NOTEKISLIGINI  
BAHOLASH VA BASHORATLASH**

**05.06.01- “To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari  
materialshunosligi”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3. PhD/T5970 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ttyysi.uz](http://www.ttyysi.uz)) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ochilov Tulkin Ashurovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xakimov Sherqul Sherg'oziyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Djunayeva Lola Anvarovna**  
texnika fanlari falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-talqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "30" mart soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5-uy tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (281-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5-uy tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "16" mart kuni tarqatildi (2026 yil "16" mart № 281-raqamli reyestr bayonnomasi).

**X.H.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**N.R.Xanxadjayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** So‘nggi yillarda mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to‘liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi. Shu sababli, hozirgi paytda korxonalarining klaster tizimiga o‘tishida paxta tozalash va ip yigirish korxonalarida mahsulot sifatini yaxshilash muhim ahamiyatga egadir. Bu borada, paxta xomashyosidan samarali foydalanish asosida energiya-resurstejamkor texnologiya va ish rejimlarini asoslash, paxta tolasi pishib etilganlik darajasini aniqlashda yangi usullarni yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Jahonda paxta xomashyosidan samarali foydalanish va raqobatbardosh to‘qimachilik uchun resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, paxta tolasi pishganlik darajasi asosida ip notekisligini baholash va bashoratlash kabi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada, paxta xomashyosidan sifatli mahsulot olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish hamda energiya va resurslarni tejash, olingan xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshiradigan energiya-resurstejamkor texnologiyani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda paxta xomashyosidan samarali foydalanish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, jumladan, “paxta xomashyosidan samarali foydalanish orqali raqobatbardosh mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarishda texnika-texnologiyalarni takomillashtirish eng muhim deb belgilab qo‘yilgan» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxta dalalarida defolyatsiyadan keyin paxta xomashyosini o‘z vaqtida terib olish va uni qayta ishlash, hamda paxta tolasidan sifatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va uni eksport qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi <sup>1</sup>, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022 yil 7 iyuldagi PQ-308-son “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2-sonli farmoni.

tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2022 yil 18 martdagi PQ-170-son "Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Seleksiya jarayonining rivojlanish istiqboli, yangi seleksion tizmalarining tola chiqimi va uni sifat ko'rsatkichlarini baholash, hosildorlikning tola sifatiga ta'siri, tolalarning tuzilishi, to'qimachilik mahsulotlari sifatini baholash bo'yicha xorijiy olimlardan K.YE.Perepelkin, A.K.Izgorodin, A.Y.Matroxin, O.A.Shalomin, A.V.Kruglov, B.N.Gusev, A.V.Kurdenkova, Y.S.Shustov, M.Y.Kumoshenskiy, A.M.Kiselev, A.P.Sorkin, M.V.Kiselev, N.O.Vasilyeva, Ye.A.Nechushkina, A.A.Kuznetsov, D.A.Ivanenkov-lar respublikamiz olimlaridan F.M.Xasanova, I.T.Karabayev, Z.Sh.Shavkatova, B.A.Sulaymonov, Sh.X.Abdualimov, R.Sh.Tillayev, J.B.Xudayqulov, A.Anorboyev, Sh.J.Teshayev, O.R.Ergashev, H.H.Matniyazova, A.G.Sherimbetov, T.A.Ochilov, U.M.Matmusayev, M.Kulmetov va boshqalar tomonidan o'rganilib tegishli tavsiyalar berilgan.

Lekin, chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida ishlatilayotgan texnika va texnologiyalar va ularni ishlash rejimlari yetarli darajada sifatli tola ishlab chiqarishni to'liq ta'minlay olmayapti. Paxta dalalarida yetishtiralayotgan g'o'za navlarini defolyatsiya qilishdan keyin tabiiy xossalarini saqlab qolish hozirgi kunda o'z yechimini kutmoqda.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot ishlarida muammoning bir qismi qamrab olingan bo'lib, hozirgi kunda paxta dalalarida defolyatsiyadan keyin tolaning pishib yetilganligiga qarab sifatli tola va undan ip ishlab chiqarish borasida tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy ishlar rejasiga muvofiq 40/2024 yildagi "Turli tarkibli iplarning sifat ko'rsatkichlarini baholash usulini takomillashtirish" mavzusida xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** paxta tolasining pishib yetilganlik darajasi asosida tola hamda ip notekisligini baholash va bashoratlashdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning strukturasi va fizik-mexanik xossalarini aniqlash yo'nalishidagi ilmiy ishlarni o'rganish va tahlil etish;

turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning buramdorlik ko'rsatkichini aniqlash uslubini ishlab chiqish;

paxta tolasining ichki halqa diametri va pishib yetilganlik koeffitsiyenti orqali ip notekisligini bashoratlash;

turli pishganlik darajasidagi tolalarni emulsiyalash asosida sifatli ip olish mumkinligini asoslash;

turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning sifat ko'rsatkichlari asosida yillik iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida turli muddatlarda pishib yetilgan tola va undan olingan iplarning sifatini aniqlashdagi sinov asboblari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida tola va ip olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida turli muddatlarda pishgib yetilgan tola va undan olingan ip sifatini baholashda maxsus va zamonaviy usullar, to'liq omilli tajriba, sinov natijalarini qayta ishlash, regression model qurish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

defolyatsiyadan keyin pishib yetilganlik muddati va darajasi turlicha bo'lgan tolalarning va undan olingan iplarning fizik-mexanik xossalari- tolani tukdorligi, uzilish kuchi, solishtirma uzilish kuchi, rangi ko'rsatkichlari aniqlangan;

paxta tolasining buramdorlik ko'rsatkichini aniqlash uslubi ishlab chiqilgan, mutloq va nisbiy xatoligi aniqlangan, sinov o'tkazish uchun kerak bo'ladigan namuna massasining muqobil varianti tavsiya etilgan;

pishib yetilganlik muddati va darajasi turlicha bo'lgan paxta tolasining ichki halqa diametri, maydoni va halqa perimetrlarining o'zgarishi orqali ip notekisligi bashoratlangan;

turli muddatlarda pishib yetilgan tolalardan olingan iplarning uzilish kuchi, tukdorligi va tukdorligi bo'yicha kvadratik notekisliklari bo'yicha o'zaro bog'liqligini ifodalovchi regression bog'lanishlar kichik kvadratlar usulida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

paxta dalalarida defolyatsiya qilingan va turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning sifat ko'rsatkichlari tadqiq etilgan va paxtani yetib olishning optimal varianti ishlab chiqilgan;

turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning buramdorlik ko'rsatkichini aniqlash uslubi, sinov o'tkazish uchun namuna massasining optimal varianti ishlab chiqilgan;

paxtani pishib yetilganlik darajasiga asosan olinadigan iplarning sifatini yaxshilash maqsadida tola emulsiyalangan va sifatli ip olish mumkinligi asoslangan;

turli pishganlik darajasiga ega bo'lgan tolalardan olingan iplarning notekislik ko'rsatkichlariga bog'liqligi bashoratlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishida standart usul va vositalardan foydalanganligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, paxtani pishib yetilganlik darajasiga asosan olinadigan iplarning sifatini yaxshilash maqsadida tola emulsiyalangan va sifatli ip olish mumkinligi, tadqiqot natijalarini baholashning ma'lum mezonlarga muvofiqligi hamda nazariy tadqiqot natijalarining tajribaviy natijalarga mos kelishi va ishonchlilik ehtimolligi  $\pm 5\%$  bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli muddatlarda pishib yetilgan toladan sifatli ip ishlab chiqarish, paxtani pishib yetilganlik darajasiga asosan olinadigan iplarning sifatini yaxshilash maqsadida emulsiyalashning yangi usulini ishlab chiqilganligi va sifatli ip olish mumkinligi asoslanganligi, paxta tolasini turli pishganlik darajasining olingan iplarning

notekislik ko'rsatkichlariga bog'liqligi bashoratlanganligi, turli muddatlarda pishib yetilgan tolalardan olingan iplarning uzilish kuchi, tukdorligi va tukdorligi bo'yicha kvadratik notekisliklari bo'yicha o'zaro bog'liqligini ifodalovchi regression bog'lanishlar kichik kvadratlar usulida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiq etilayotgan turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning buramdorlik ko'rsatkichini aniqlash uslubi ishlab chiqilganligi, sinov o'tkazish uchun kerak bo'ladigan namuna massasining optimal varianti aniqlanganligi yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Paxta tolasining pishib yetilganlik ko'rsatkichi asosida tola va ip sifatini baholash hamda notekisligini bashoratlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

taklif etilayotgan turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning ko'rsatkichlari asosida paxtani pishganlik koeffitsiyentining iplarning notekislik ko'rsatkichlariga bog'liqligini bashoratlash ishlari "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tassarufidagi korxonalarda, shu jumladan, "Reel Tex Tashkent" MCHJ (Toshkent shahri) korxonasida amaliyotga joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi 2024 yil 08 martdagi 03/13-916-son ma'lumotnomasi). Natijada, taklif etilayotgan variant asosida g'o'zada ilk ochilgan ko'sakdagi toladan olingan ipning ko'rsatkichlariga nisbatan taklif etilayotgan variant asosida olingan iplarning notekisligi 4,7% ga, variatsiya koeffitsiyenti 7,3% ga, tukdorligi 21,4% ga, tukdorligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 7,8% ga kamaygan, uzilish kuchi 3,7% ga, solishtirma uzilish kuchi 0,3% ga oshgan;

taklif etilayotgan paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tassarufidagi korxonalarda, shu jumladan, Sirdaryo viloyatidagi "Boyovut Cotton Textile" MCHJ korxonasida joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi 2024 yil 08 martdagi 03/13-916-son ma'lumotnomasi). Natijada, taklif etilayotgan variant asosida g'o'zada 9 kun ochilib turgan ko'sakdan olingan tola tarkibidagi iflosliklar miqdori 12 kun ko'sakda ochilib turgan paxta tolasida tarkibidagi iflosliklar miqdoriga nisbatan 15-17% past ekanligiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 9 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 8 ta ilmiy maqolalardan iborat, shulardan 3 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK jurnallarida, 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalarni belgilaydi, uning obyekti va predmetini shakllantiradi, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ko‘rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy-texnik adabiyotlar sharhi va masalalarning qo‘yilishi”** deb nomlangan birinchi bobida paxtachilik sanoatining rivojlanishi va uning istiqboli, paxta tolasi pishib yetilish davrida tola tuzilishi va sifatining o‘zgarishi, to‘qimachilik materiallar sifat ko‘rsatkichlarini bashoratlash va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uslubini takomillashtirish ishlari olib borildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi.

Dissertatsiya ishining **“Tadqiqot o‘tkazish obyekti va paxta tolasi sifatini aniqlash uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida turli muddatlarda pishib yetilgan paxta tolasidan namunalar olish obyekti, tolalar tuzilishi va fizik-mexanik xossalarini aniqlash uslublari, paxta tolasi buramdorligini aniqlashning takomillash-tirilgan usuli bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Tadqiqot ishlari O‘rta Chirchiq tumanidagi REEL texnik muhandislik agroklasteri dalasida olib borildi. Uning uchun, Namangan-77 seleksiya navli I navli paxtaning 100x100 m masofadagi g‘o‘zalari tanlab olindi. Birinchi navbatda defolyatsiya qilingandan keyin g‘o‘zada ilk ochilgan ko‘saklar, keyin 3 kun, 6 kun, 9 kun va 12 kun davomida pishib yetilgan har bir muddatidan 100 kg atrofidagi paxta qo‘l yordamida terib olindi va agroklaster laboratoriyasidagi DL-10 jin mashinasida tolasi chigitidan ajratildi. Chunki, tolasini chigitidan ajratmasak, tolaning pishganlik darajasi o‘zgarib ketishi mumkin.

Olingan paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining “Materialshunoslik va standartlashtirish” kafedrasidagi zamonaviy asbob-uskunalarda aniqlandi.

Turli muddatlarda pishib yetilgan paxta tolasi 3-xil variantda emulsiyalanib, undan “Reel Tex Tashkent” MChJ korxonasi 20,0 teksli ip ishlab chiqarildi. Olingan iplarning sifat ko‘rsatkichlari “UZTEX TASHKENT” MChJ korxonasi sinov laboratoriyasida USTER TESTER5-S 400 asbobida aniqlandi.

Tola buramdorligini aniqlash usuli ishlab chiqildi va olingan sinov natijalarining variatsiya koeffitsiyenti va nisbiy xatoligi aniqlandi.

Tola buramdorlik ko‘rsatkichi bo‘yicha farqlanishining tola soniga qarab o‘zgarish grafigi 1-rasmda keltirilgan.




Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, ko'saklarning ochilish muddatlariga qarab, tolalar buramdorlik ko'rsatkichining farqlanishi bo'yicha kvadratik notekisligi 9,1-17,2% ni tashkil etganligi ko'rindi.

Ortacha ko'rsatkich


### 1-rasm. Tolalar buramdorlik ko'rsatkichining farqlanishi bo'yicha kvadratik notekisligi.

Dissertatsiya ishining "Tolaning pishib yetilganlik darajasining tolaning tuzilishi va fizik-mexanik xossalariga ta'siri" deb nomlangan uchunchi bobida turli muddatlarda pishib yetilgan tola tuzilishining tadqiqoti, ko'sakdagi chigitning massasi va geometrik o'lchamlarining tadqiqoti, buramdorlik ko'rsatkichining o'zgarishi, pishib yetilganli koeffitsiyenti va tola sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.


Ko'sakda turli muddatlarda pishib yetilgan tolalardan namunalar olinib, ularning tuzilishi skanerli elektron mikroskop yordamida aniqlandi.




Ilk ochilgan ko'sakdagi tola




3 kun ochilib turgan ko'sakdagi tola



9 kun ochilib turgan ko'sakdagi tola



12 kun ochilib turgan ko'sakdagi tola



6 kun ochilib turgan ko'sakdagi tola

### 2-rasm. Turli muddatlarda pishib yetilgan tolalarning tuzilishini skanerli elektron mikroskop yordamida tahlili.

Turli muddatlarda pishib yetilgan tolalarning tuzilishini tahlili qiladigan bo'lsak, g'o'zada ilk ochilgan ko'sakdagi tolalarning tashqi ko'rinishi plastinkasimon bo'lib, pishgan sari ularning tashqi ko'rinishi o'zgarib boradi. Masalan, g'o'zada 3 kun davomida ochilgan ko'sakdagi tolalarning tashqi ko'rinishida buramlar soni deyarli

bo'lmaydi. G'ozada 6 kun davomida ochilgan ko'sakdagi tolalarning tashqi ko'rinishida sekin-sekin buramlar soni paydo bo'lib, 9 kunda buramlar soni ko'payib, 12 kun davomida tolaning tashqi ko'rinishida tolalarning buramdorligi kamayib boradi.

G'ozada ilk ochilgan ko'sakdagi tolalarning yuza tuzilishi plastinkasimon bo'lib, pishgan sari o'zgarib borganligi, g'ozada 3 kun davomida ochilgan ko'sakdagi tolalarda buramlar soni deyarli bo'lmasligi va g'ozada 6 kun davomida ochilgan ko'sakdagi tolalarda esa sekin-sekin buramlar soni paydo bo'lib, 9 kunda buramlar soni ko'payib, 12 kun davomida tolaning tashqi ko'rinishida tolalarning buramdorligi kamayib borganligi aniqlandi.

Ko'sakda pishib yetilganlik darajasi bo'yicha tolalar sonini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi.

Tolalarning pishib yetilganligi darajasi bo'yicha tolalar sonini aniqlash bo'yicha olingan sinov natijalari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

**Turli muddatlarda pishib yetilgan ko'sakdagi  
tolalar sonining o'zgarishi**

t/r	Ko'sakning ochilish muddati	Tolaning pishganlik darajasi bo'yicha soni		
		0-1,5	1,5-3,0	3,0-4,5
1.	Ilk ochilgan ko'sak	14	20	66
2.	3 kun ochilib turgan ko'sak	11	17	72
3.	6 kun ochilib turgan ko'sak	10	15	75
4.	9 kun ochilib turgan ko'sak	9	14	77
5.	12 kun ochilib turgan ko'sak	6	10	84

Tadqiqot natijalarini tahlil etadigan bo'lsak, tolaning pishganlik darajasi 0-1,5 bo'lgandagi ilk ochilgandagi ko'sakdagi tolaning ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, tolaning pishganlik darajasi 1,5-2,5 bo'lganda 30,0% ga, tolaning pishganlik darajasi 3,0-4,5 bo'lganda 78,8% ga, 3 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, tolaning pishganlik darajasi 1,5-3,0 bo'lganda 35,3% ga, tolaning pishganlik darajasi 3,0-4,5 bo'lganda 84,7% ga, 6 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, tolaning pishganlik darajasi 1,5-2,5 bo'lganda 33,3% ga, tolaning pishganlik darajasi 3,0-4,5 bo'lganda 86,7% ga, 9 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, tolaning pishganlik darajasi 1,5-3,0 bo'lganda 35,7% ga, tolaning pishganlik darajasi 3,0-4,5 bo'lganda 88,3% ga, 12 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning ko'rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, tolaning pishganlik darajasi 1,5-2,5 bo'lganda 40,0% ga, tolaning pishganlik darajasi 3,0-4,5 bo'lganda 92,9% ga oshganligi aniqlandi. Olib borilgan sinov natijalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, dalada ko'sak qanchalik ko'p ochilib turadigan bo'lsa, tolalar yaxshi pishib yetilishi aniqlandi.

Paxta dalasida g'ozada defolyatsiya qilingandan keyin ko'sakdagi chigitning massasi va geometrik o'lchamlarining o'zgarishi borasida tadqiqot ishlari olib borildi va olingan sinov natijalari 3-rasmda keltirildi.



**3-rasm. Turli muddatlarda pishib yetilgan ko'sakdagi chigit o'lchamlarining o'zgarishi.**

Tadqiqot natijalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, ko'sakdagi paxtani qanchalik ko'p dalada termasdan ushlab tursak, bitta chigitning massasi, uzunligi, eni, ko'sakdagi paxta massasi ortib borishi aniqlandi.

Paxta dalasida turli muddatlarda pishib yetilgan paxta qo'l yordamida terib olindi va tozalanish samaradorligi aniqlandi. Olingan tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval


**Turli muddatlarda pishib yetilgan paxta tarkibidagi ifloslik miqdorining tadqiqoti**

t/r	Ko'rsatkichlar	Ko'sakning ochilish muddati				
		Ilk ochilgan ko'sak	3 kun ochilib turgan ko'sak	6 kun ochilib turgan ko'sak	9 kun ochilib turgan ko'sak	12 kun ochilib turgan ko'sak
1.	Paxtaning namligi, %	8,9	9,0	9,2	9,5	9,0
	Umumiy iflosliklar miqdori, %	6,5	7,2	6,7	6,3	6,4
	shu jumladan:					
	mayda iflosliklar miqdori, %	4,4	4,8	4,7	4,0	4,2
	yirik iflosliklar miqdori, %	2,1	2,4	2,0	2,3	2,2
2.	Jinlash jarayonidan keyingi paxtaning namligi, %	7,2	7,0	7,4	7,1	7,5
	Umumiy iflosliklar miqdori, %	0,67	0,75	0,72	0,63	0,69
	shu jumladan:					
	mayda iflosliklar miqdori, %	0,42	0,49	0,44	0,43	0,47
	yirik iflosliklar miqdori, %	0,25	0,26	0,28	0,20	0,22

Tadqiqot natijalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, turli muddatlarda pishib yetilgan paxtaning iflosliklardan tozalanish samaradorligi jinlash jarayonidan keyin 88,0 dan 90,0% gacha tozalandi.

Tolalarning buramdorlik ko'rsatkichlarini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi. Buning uchun, turli muddatlarda ko'sakda pishib yetilgan tolalarning pishganlik darajasiga qarab mikroskop yordamida aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida 4-rasmda turli muddatlarda pishib yetilgan ko'sakdagi tolalarning buramdorlik ko'rsatkichining o'zgarish grafigi keltirildi.



**4-rasm. Tola buramdorlik ko'rsatkichlarining tolaning pishib yetilganlik darajasi bo'yicha o'zgarishi.**

1-3,0-4,5 tolaning pishganlik darajasi bo'yicha;  
 2-1,5-3,0 tolaning pishganlik darajasi bo'yicha;  
 3-0-1,5 tolaning pishganlik darajasi bo'yicha

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, paxta dalasida uzoq muddatlarda termasdan ushlab turadigan bo'lsak, tolada buramdorlik ko'rsatkichi ortar ekan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, defolyatsiya qilingan paxtani uzoq muddatlarda termasdan ushlab turish natijasida tolaning buramdorligi ma'lum muddatlarda ko'payib, ma'lum muddat o'tgandan keyin kamayishi aniqlandi. Aksincha, tolaning pishganlik darajasi ortib ketar ekan.

Paxta tolasining chiziqiy zichligi va fizik-mexanik xossalarning tolaning pishib yetilganlik muddati bo'yicha o'zgarishini tahlil etish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.

Olingan ilmiy-tadqiqot natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval


**Turli muddatlarda pishib yetilgan ko'sakdagi tolalarning fizik-mexanik xossalarning o'zgarishi**

t/r	Ko'sakning ochilish muddati	Tolaning chiziqiy zichligi, mteks	Tolaning uzilish kuchi, sN	Tolaning solishtirma uzilish kuchi, sN/teks
1.	Ilk ochilgan ko'sak	166	4,0	24,1
2.	3 kun ochilib turgan ko'sak	166	4,1	24,7
3.	6 kun ochilib turgan ko'sak	172	4,4	25,6
4.	9 kun ochilib turgan ko'sak	178	4,5	25,3
5.	12 kun ochilib turgan ko'sak	181	4,5	24,9

Olib borilgan sinov natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ilk ochilgan ko'sakda tolaning uzilish kuchi 4,0 sN ni, solishtirma uzilish kuchi 24,1 sN/teks ni, 3 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning uzilish kuchi 4,1 sN ni, solishtirma uzilish kuchi 24,7 sN/teks ni, 6 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning uzilish kuchi 4,4 sN ni, solishtirma uzilish kuchi 25,6 sN/teks ni, 9 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning uzilish kuchi 4,5 sN ni, solishtirma uzilish kuchi 25,3 sN/teks ni, 12 kun ochilib turgan ko'sakdagi tolaning uzilish kuchi 4,5 sN ni, solishtirma uzilish kuchi 24,9 sN/teks ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, paxta dalasida paxtani termasdan ko'proq ushlab turadigan bo'lsak, tolaning chiziqiy zichligi, uzilish kuchi va solishtirma uzilish kuchi ortib ketishligi aniqlandi.

Paxta tolasining geometrik xossalarni aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi va olingan sinov natijalari 5-rasmda keltirilgan.



**5-rasm. Tolalarning shtapel massa uzunligining ko'sakdagi tolalarning pishib yetilish muddatlariga qarab o'zgarishi.**

Paxta dalalarida g'ozalarning quyosh ta'siri natijasida uzoq muddatlarda turishi protoplazma miqdorining ortishiga olib keladi. Tolalarning sellyuloza miqdori ortadi. Olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, paxta dalalarida termasdan ushlab turilgan tolaning shtapel massa uzunligi 1,1 mm ga ortishi kuzatildi. Turli muddatlarda pishib yetilgan tolalarning sifat ko'rsatkichlari zamonaviy HVI 1000 SA tizimida aniqlandi va olingan natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

**Turli muddatlarda pishib yetilgan tolaning sifat ko'rsatkichlarining tadqiqoti**

t/r	Ko'rsatkichlar	G'ozadagi ko'saklarning ochilib turish muddati, kun				
		Ilk ochilgan	3 kun	6 kun	9 kun	12 kun
1.	Mic-mikroneyr	4,71	4,79	4,78	4,83	4,93
2.	Len- yuqori o'rtacha uzunlik	1,15	1,15	1,19	1,15	1,18
3.	Unf- uzunlik bo'yicha birxillik indeksi, %	86,7	86,9	88,2	88,0	85,7
4.	Str-solishtirma uzilish kuchi, cN/teks	29,3	31,7	31,8	31,5	32,1
5.	Elg -uzilishdagi uzayish, %	8,2	7,3	7,6	7,9	8,0
6.	SFI-kalta tolalar indeksi	5,4	5,1	5,2	5,2	6,1
7.	SCI- tolaning yigiruvchanlik qobiliyati	149,1	156,4	165,1	161,7	153,0
8.	Rd-nur qaytarish koeffitsiyenti	80,7	81,1	81,3	82,4	81,9
9.	+b-sarg'ishlik darajasi	7,7	6,7	7,4	7,2	7,5
10.	CG-nav bo'yicha rangi	21-2	31-1	31-1	21-2	21-2
11.	Cnt- iflos aralashmalar soni	3	3	2	1	2

Tadqiqot natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, ilk ochilgan ko'sakdagi tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,71 ni, kalta tolalar indeksi 5,4 ni, uzunlik bo'yicha birxillik indeksi 86,7 ni, nur qaytarish koeffitsiyenti 80,7 ni, yuqori o'rtacha uzunlik ko'rsatkichi 1,15 ni, paxta tolasini yigiruvchanlik qobiliyati 149,1 ni, 3 kun ko'sakda ochilib turgan tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,79 ni, kalta tolalar indeksi 5,1 ni, uzunlik bo'yicha birxillik indeksi 86,9 ni, nur qaytarish koeffitsiyenti 81,1 ni, yuqori o'rtacha uzunlik ko'rsatkichi 1,15 ni, paxta tolasini yigiruvchanlik qobiliyati 156,1 ni, 6 kun ko'sakda ochilib turgan tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,78 ni, kalta tolalar indeksi 5,2 ni, uzunlik bo'yicha birxillik indeksi 88,2 ni, nur qaytarish koeffitsiyenti 81,3 ni, yuqori o'rtacha uzunlik ko'rsatkichi 1,19 ni, paxta tolasini yigiruvchanlik qobiliyati 165,1 ni, 9 kun ko'sakda ochilib turgan tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,83 ni, kalta tolalar indeksi 5,2 ni, uzunlik bo'yicha birxillik indeksi 88,0 ni, nur qaytarish koeffitsiyenti 82,4 ni, yuqori o'rtacha uzunlik ko'rsatkichi 1,15 ni, paxta tolasini yigiruvchanlik qobiliyati 161,7 ni, 12 kun ko'sakda ochilib turgan tolaning mikroneyr ko'rsatkichi 4,93 ni, kalta tolalar indeksi 6,1 ni, uzunlik bo'yicha birxillik indeksi 85,7

ni, nur qaytarish koeffitsiyenti 81,9 ni, yuqori o‘rtacha uzunlik ko‘rsatkichi 1,18 ni, paxta tolasi yigiruvchanlik qobiliyati 153,0 ni tashkil etdi.

Dissertatsiya ishining “**Paxta tolasi olingan kalava ip sifatini baholash va bashoratlash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida turli muddatlarda pishib yetilgan paxta tolasidan olingan ip notekisligini bashoratlash, emulsiyalash tarkibi va pishib yetilganlik darajasi turlicha bo‘lgan tolalardan olingan iplarning notekislik, turli muddatlarda pishib yetilgan paxta tolasiga emulsiya bilan ishlov berilish asosida olingan kalava ip ko‘rsatkichlari baholashda to‘liq omilli eksperiment o‘tkazish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Turli muddatlarda pishib yetilgan paxta tolasiga emulsiya bilan ishlov berilish asosida olingan kalava ip ko‘rsatkichlarini baholashda to‘liq omilli eksperiment o‘tkazish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Optimallashtirish parametrlari quyidagilardan iborat:  $y_1$  – tukdorlik,%;  $y_2$  – uzilish kuchi, sN;  $y_3$  – solishtirma uzilish kuchi, sN/teks.

Aprior ma’lumotlar asosida o‘zgarish omillari tanlandi (5-jadval).

5-jadval

### Omllarning darajasi va o‘zgarish sathi

Omllar	Kodli belgilanishi	O‘zgarish sathi	Omllar darajasi		
			+1	0	-1
Emulsiya tarkibi, gr	$x_1$	10	85(+10)	75(+20)	65(+30)
Vaqt, kun	$x_2$	3	9	6	3

Rejalashtirish matritsasi va tajribalarning natijalari quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

### Rejalashtirish matritsasi va sinov natijalari


T/p	$x_0$	$x_1$	$x_2$	$x_1 x_2$	$y_1$	$y_2$	$y_3$
1.	+	+	+	+	3,4	2,4	16,0
2.	+	-	+	-	3,3	2,44	15,88
3.	+	+	-	-	4,3	4,32	17,0
4.	+	-	-	+	4,92	4,0	16,2

Регрессия коэффициентининг тенгласини аниқлаш  $b_0=3.29$ ,  $b_1=0.07$ ,  $b_2=-0.87$ ,  $b_{12}=-0.09$

$\Delta b_i = \pm 0,3303$ . ishonchlilik oralig‘ini hisobga olgan holda regressiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$y_2 = 3,29 - 0,87 x_2$$

Emulsiya tarkibidagi komponentlarning ratsional qiymatlari quyidagilar: kollagenning 10% li eritmasi-85 gr, glitserinning eritma tarkibidagi doimiy qiymati - 5 gr, suv 900 gr, poliakrilamidning 0,5% eritmasi-10gr; omil uchun kunlar soni 3 yoki 6.




**6- rasm. Uch o'lchamli fazoda to'liq faktorli eksperiment natijalarining grafik tasviri.**

у-солиштирма узилиш кучи

$x_1$  -Эмульсия таркиби

$x_2$  -пишиб етилган кун.




**7- rasm. Turli pishib yetilganlik darajasidagi paxta tolasini.**

$z = 0$  -pishmagan tola;  $z = 5$  -o'ta pishgan tola

Tolalarning tuzilishi tavsiflanayotganda, shuni ta'kidlash kerakki, pishib yetilgan va o'ta pishib yetilgan tolalar naychasimon tor bo'ladi va ko'ndalang kesim yuzasining shakli o'zgaradi, tolalar yetilgan sari loviya shaklidan ellips shakliga (ko'rinishga) o'tadi; o'ta pishib yetilgan tolalarda esa deyarli buralgan shaklda bo'ladi; yetilmagan tolalarda esa ular yassi (tekis) lenta shaklida bo'ladi.

Turli pishib yetilganlik darajasiga ega bo'lgan paxta tolalarining cho'zilish kuchiga qarshiligini baholash uchun tolalarning ko'ndalang kesim yuzasi maydonining o'zgarishini tahlil qilish zarur. Ilgari ishlab chiqilgan va ma'lum bo'lgan paxtaning pishib yetilganlik darajasini aniqlash uslubini bir nechta navlar va pishib yetilish bosqichlaridagi paxta tolalarning yassi va sun'iy ravishda tekislangan kesmalarini o'rganishga asoslangan edi.

Turli pishib yetilganlik darajasiga ega bo'lgan paxta tolalarining asosiy cho'zilish kuchiga qarshiligini baholash uchun tolalarning ko'ndalang kesim yuzasi maydonining o'zgarishini tahlil qilish zarur (8- rasm). Bunda Namangan 77 sanoat navi paxta tolasini pishib yetiganligini aniqlash uchun qirqimlar tayyorlanib, SEM-EVO MA 10 (Zeiss, Germany) rusumli skanerlash mikroskopda olingan tolaning ko'ndalang kesimi bo'yicha tuzilish tasviri 8-rasmda keltirilgan.



a) pishmagan paxta tolasini ko'ndalang kesimi

b) pishgan paxta tolasini ko'ndalang kesimi.

**8-rasm. Paxta tolasining ko'ndalang kesimi bo'yicha tuzilish tasviri.**

Paxta tolasining pishib yetilganlik koeffitsiyenti H.Qodirov formulasi orqali aniqlandi.

$$K_{\pi} = \frac{D_t}{D_d} \quad (1)$$


Bu yerda:  $D_d$ -tola devorining qalinligi;  $D_t$  - tolaning umumiy diametri.

8-rasmda ko'rsatilgan  $D_q$  - tolaning ichki aylana diametrini aniqlash uchun quyidagi formula taklif etildi:

$$D_q = \frac{4 \cdot A_l}{P} \quad (2)$$

Bu yerda:  $D_q$ -tolaning ichki aylana diametri;  $A_l$ -(lyumen) ichki aylana maydoni yoki markaziy bo'shliq;  $P$  - ichki aylana perimetri.

$D_q$  - tolaning ichki aylana diametri,  $A_l$  - (lyumen) ichki aylana maydoni yoki markaziy bo'shliq va  $P$  - ichki aylana perimetrini aniqlash uchun tolaning ko'ndalang kesimida yaqqol tasviri keltiridi ( 9-rasm).



### 9-rasm. Paxta tolasining ko'ndalang kesimi orqali tolaning ichki diametrini aniqlash sxemasi.

Namangan 77 (5 tip) uchun  $P$ -ichki aylana perimetri ellipsga yaqin deb hisoblanib, quyidagicha formuladan foydalanish mumkin:

$$P = \pi \cdot \left[ 3(a+b) - \sqrt{(3a+b)(a+3b)} \right] \quad (3)$$

Bu yerda:  $a$ -yarim katta o'q (mkm);  $b$  – yarim kichik o'q (mkm).

Ichki aylana maydoni (ellips deb hisoblasak):

$$A_l = \pi \cdot a \cdot b \quad (4)$$

O'rta tolali paxta (1-5 nav) uchun tavsiya etilgan o'qlar va perimetrlar qiymati quyidagi qiymatlar oralig'ida bo'lishi mumkin (7-jadval) (adabiyot H.Qodirov. Paxta tolasini morfologiyasi. Toshkent, 2004).

7-jadval

Nav	$a$ (mkm)	$b$ (mkm)	Hisoblangan $P$ (mkm)
1-nav	5,0	3,0	25,6
2-nav	4,8	2,8	24,4
3-nav	4,5	2,6	23,1
4-nav	4,2	2,5	22,0
5-nav	4,0	2,3	20,8


Tadqiqotlar natijalariga ko'ra,  $K_p$ - pishib yetilganlik koeffitsiyentini lyumen maydoni va tola kesim maydoni (8-jadval) nisbati bilan topamiz:

8-jadval

## Kp-pishib yetilganlik koeffitsiyentini lyumen maydoni va tola kesim maydoni nisbati orqali aniqlash

Sanoat navi	Paxtani pishib yetilish kunlari	Umumiy diametri Dt, mkm	Lyumen o'qlari a×b, mkm	At(mkm <sup>2</sup> ) Kp xAl	Al (mkm <sup>2</sup> ) (a xbx3,14)	Kp=At /Al
I	3	20	3 × 2,2	48,6	20,7	2,35
	6	20	3 × 2,0	45,2	18,8	2,4
	9	20	3 × 1,9	43,8	17,8	2,45
	12	20	3 × 2,1	47,4	19,7	2,4
II	3	19	3,2 × 2,6	26,1	26,1	1,0
	6	19	3,2 × 2,2	28,7	22,1	1,3
	9	19	3,2 × 2,0	28,2	18,8	1,5
	12	19	3,2 × 2,4	24,1	24,1	1,0
III	3	18	3,5 × 2,5	22	27,4	0,8
	6	18	3,5 × 2,3	25,3	25,3	1,0
	9	18	3,5 × 2,1	29,9	23	1,3
	12	18	3,5 × 2,4	23,6	26,3	0,9
IV	3	17	3,7 x 2,9	16,8	33,6	0,5
	6	17	3,7 x 2,6	28,2	28,2	1,0
	9	17	3,7 x 2,4	33,2	30,2	1,1
	12	17	3,7 x 2,7	21,9	31,3	0,7
